



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 06 | pp. 257-262 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH



Muxidinov Ayubbek Nuritdinovich,

Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Annotasiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida (OTM) asosiy vositalar buxgalteriya hisobini yuritishning amaldagi holati va uni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari - MHXS (xususan, MHXS 16 «Asosiy vositalar») talablariga o'tkazish istiqbollari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida OTMlarning moliyaviy mustaqilligi sharoitida aktivlarni baholash, amortizasiya hisoblash va qayta baholash modellarini qo'llash masalalari o'rganilgan. Maqolada milliy va xalqaro standartlar o'rtasidagi tafovutlar real empirik ma'lumotlar va qiyosiy jadvallar asosida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, asosiy vositalar, MHXS, BHMS, buxgalteriya hisobi, moliyaviy mustaqillik, qayta baholash, haqqoniy qiymat.

Аннотация: В данной статье анализируется текущее состояние бухгалтерского учета основных средств в высших образовательных учреждениях (БОУ) Республики Узбекистан и перспективы его перевода на требования МСФО (в частности, МСФО (IAS) 16 «Основные средства»). В ходе исследования в условиях финансовой самостоятельности вузов были изучены вопросы оценки активов, начисления амортизации и применения моделей переоценки. В статье на основе реальных эмпирических данных и сравнительных таблиц обоснованы системные различия между национальными и международными стандартами.

Ключевые слова: Высшее образование, основные средства, МСФО, НСБУ, бухгалтерский учет, финансовая самостоятельность, переоценка, справедливая стоимость.

Abstract: This article analyzes the current state of accounting for fixed assets in higher education institutions (HEIs) of the Republic of Uzbekistan and the prospects for its transition to the requirements of IFRS (specifically, IAS 16 "Property, Plant and Equipment"). In the context of the financial autonomy of universities, the study examines the issues of asset valuation, depreciation methods, and the application of revaluation models. Based on real empirical data and comparative tables, the systemic differences between national and international standards are substantiated.

Keywords: Higher education, fixed assets, IFRS, NAS, accounting, financial autonomy, revaluation, fair value.

Kirish

O'zbekiston iqtisodiyotini modernizasiya qilish va oliy ta'lim tizimini xalqaro andozalarga moslashtirish sharoitida davlat sektorida moliyaviy shaffoflikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-sonli «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori bu boradagi islohotlarning huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarining (OTM) moliyaviy mustaqillikka o'tishi ularning balansidagi asosiy vositalarni — binolar, talabalar turar joylari, ilmiy-o'quv laboratoriyalari hamda zamonaviy AKT jihozlarini boshqarish va ularning haqqoniy qiymatini moliyaviy hisobotlarda aks ettirish zaruratini keltirib chiqardi. Hozirda milliy standartlar (BHMS) va Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari - MHXS (IFRS) o'rtasidagi konseptual farqlar investisiyalarni jalb qilish, xorijiy grantlar bilan ishlash va xalqaro reytinglarda OTMlarning moliyaviy barqarorligini haqqoniy baholashda muayyan qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Metodologiya

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish, guruhlash va deduksiya usullaridan foydalanildi. Xalqaro 16-sonli (IAS 16) «Asosiy vositalar» standarti va milliy 5-sonli BHMS «Asosiy vositalar» qoidalari qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotning empirik bazasini shakllantirish maqsadida moliyaviy mustaqillik berilgan OTMlarning asosiy vositalar tarkibi, ularning boshlang'ich qiymati, jamg'arilgan amortizatsiyasi va qoldiq qiymatiga oid real buxgalteriya balansi ma'lumotlari guruhlandi va MHXSning qayta baholash hamda komponentlar bo'yicha hisoblash modellari nuqtai nazaridan matematik-iqtisodiy jihatdan qayta ishlandi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Asosiy vositalar hisobini takomillashtirishning dolzarb masalalari doimiy ravishda tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganilib kelingan. Bu borada maxalliy va xorijiy olimlar o'z ilmiy ishlarida turli xil fikrlarni bildirib o'tishgan.

Masalan, mamlakatimiz olimlaridan biri I.N. Ismanov tomonidan bu borada ilmiy izlanishlar olib borilgan, natijada asosiy vositalar hisobini uzoq muddatli aktivlar tarkibida hisobga olishni taklif etgan: "Uzoq muddatli aktivlar – bu mulkiy qiymatliklar bo'lib, korxona tomonidan ishlab chiqarish jarayonida uzoq muddat foydalanish uchun sotib olinadigan, unumdorligi, foyda keltira olishi va nazorat qilinishi mumkinligi bilan tavsiflanadigan mablag'lardir. Shu bilan birga, uzoq muddatli aktivlarning shakllanish tamoyillari va tavsiflanishiga e'tibor qaratish lozim" [5].

Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida asosiy vositalar hisobi va auditini takomillashtirish yuzasidan izlanishlar olib borgan iqtisodchi olim K.X.Xatamovning ilmiy yondashuviga ko'ra, asosiy vositalar hisobini takomillashtirishning eng dolzarb jihati ularni tan olishda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablariga qat'iy rioya qilish, xususan, aktivdan kelajakda iqtisodiy foyda olish ehtimolini va tannarxini ishonchli baholash mezonlarini to'g'ri belgilash hisoblanadi [6]. Agarda asosiy vositalar ularni tan olishning birinchi shartiga javob bersa, korxona dastlabki tan olinish vaqtiga qarab aktiv bilan bog'liq kelgusi iqtisodiy foyda olish ehtimolini belgilaydi. Ushbu

ehtimollik darajasi korxona tomonidan aktiv bilan bog'liq manfaat va risklarni olishi aniq bo'lishini ham talab etadi.

Xalqaro amaliyotda asosiy vositalar hisobini buxgalteriya hisobining ob'yekti sifatida hisobga olishda bir nechta MHXSlardan foydalaniladi, jumladan, MHXS 16-sonli "Asosiy vositalar", MHXS 2-sonli "Tovar-moddiy zaxiralar", MHXS 40-sonli "Investitsiyaviy ko'chmas mulk" va boshqa standartlardan. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga asosan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati haqiqiy xarajatlar (MHXS 16-sonli "Asosiy vositalar") yoki qayta baholangan qiymat (MHXS 36-sonli "Aktivlarning qadsizlanishi") standartlaridagi normalar bilan aniqlanadi.

N.A.Terpakning izlanishlariga ko'ra, "Tashkilot tomonidan asosiy vosita sifatida qabul qilingandan so'ng, u tarixiy qiymati bo'yicha hisobga olinadi. Boshlang'ich qiymat asosiy vositalarni korxonaga olish usulidan kelib chiqib shakllantiriladi" [7] - deb, izohlaydi.

Rossiyalik qator olimlar, jumladan, O.V. Jerdeva, Ye.A. Sankova va S.A. Mullinvalar esa, "Xo'jalik yurituvchi sub'yekt asosiy vositalarni qayta baholash to'g'risida qaror qabul qiladi, bu esa keyinchalik buxgalteriya siyosatida belgilanadi. Agar tashkilot asosiy vositalarni qayta baholashga qaror qilsa, PBU 6/01ga muvofiq qayta baholash qo'shimcha kapitalga kiritiladi. Xalqaro amaliyotda asosiy vositalar ham qayta baholanishi mumkin. Qayta baholash xo'jalik yurituvchi subektda shunday amalga oshiriladiki, asosiy vositalar har doim joriy tannarxda aks ettiriladi. Bu foydalanuvchilar uchun buxgalteriya hisobi va hisobotni yanada ishonchli qiladi. Biroq, MHXSGa muvofiq, qayta baholash o'z kapitaliga kiritiladi va "qayta baholash zahirasi" deb ataladi. "Qayta baholash zahirasi" o'z navbatida hisobot davri oxirida foydaga hisobdan chiqariladi. Agar asosiy vosita amortizasiya qilingan bo'lsa, u hisobot davrining zararlarida aks ettiriladi" [8] - deb, ta'kidlab o'tganlar. M.Filippovanning fikricha, "Amortizasiya solishtirishning keyingi jihati hisoblanadi. Shunday qilib, Rossiya buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyati - bu asosiy vositalarning qiymatini foydali xizmat muddati yillari yig'indisi bo'yicha hisobdan chiqarish usulidir" [9].

Rossiyalik olim K.A.Shkamardaning e'tirofi etishicha, "Rossiya buxgalteriya hisobida asosiy vositani tugatishda ushbu harakat bilan bog'liq barcha xarajatlar hisobga olinmaydi. Xuddi shu narsa asosiy vositalarni qayta tiklash jarayoniga ham tegishlidir" [10].

Tahlil va natijalar

OTMlarning balans ko'rsatkichlari tahlil qilinganda, asosiy vositalarning katta qismini ko'chmas mulk (bino va inshootlar) hamda o'quv-laboratoriya uskunolari tashkil etishi aniqlandi. Amaldagi milliy tizim va MHXS 16 talablari o'rtasidagi eng asosiy tafovutlar aktivlarni dastlabki baholash, amortizasiya hisoblash usullari va keyingi baholash (haqqoniy qiymat) modellarida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot davomida shakllantirilgan quyidagi 1-jadvalda milliy buxgalteriya hisobi standartlari (BHMS) bilan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) o'rtasidagi tizimli va konseptual farqlar umumlashtirilgan.

1-jadval.

BHMS va MHXS asosida asosiy vositalar hisobini yuritishning qiyosiy tahlili

T/r	Baholash va	BHMS 5-sonli standart	MHXS 16 «Asosiy vositalar»
-----	-------------	-----------------------	----------------------------

	hisob parametrlari	(Amaldagi tizim)	(Tavsiya etilayotgan tizim)
1	Dastlabki baholash mezonlari	Tarixiy (haqiqiy) tannarx asosida baholanadi. Bunda demontaj xarajatlari hisobga olinmaydi.	Haqqoniy qiymat yoki dastlabki tannarx. Kelajakdagi demontaj va tiklash xarajatlari baholanib, tannarxga kapitallashtiriladi.
2	Keyingi baholash modellari	Davriy ravishda (indeks usuli yoki bozor qiymatida) majburiy qayta baholash amalga oshiriladi.	Ikki xil model mavjud: Tannarx modeli (Cost model) yoki Qayta baholash modeli (Revaluation model).
3	Amortizatsiya (eskirish) siyosati	Davlat tomonidan belgilangan qat'iy me'yorlar (foizlar) asosida hisoblanadi.	Aktivning iqtisodiy foydali xizmat muddati va qoldiq qiymati (residual value) asosida hisoblanadi.
4	Foydali xizmat muddatini qayta ko'rib chiqish	Deyarli amalga oshirilmaydi, muddatlar o'zgarishsiz qoladi.	Har bir hisobot yili yakunida majburiy tartibda qayta ko'rib chiqiladi va o'zgartiriladi.
5	Komponentlar asosida hisob yuritish	Aktiv yaxlit bir ob'yekt sifatida hisobga olinadi (masalan, bino to'liq bir inventar raqamida turadi).	Aktivning muhim qismlari (komponentlari) alohida foydali muddatga ega bo'lsa, alohida ob'yekt sifatida amortizatsiya qilinadi.
6	Qadrsizlanish testi (Impairment)	Aktivlarning qadrsizlanishi tushunchasi va unga doir majburiy testlar mavjud emas.	Iqtisodiy yoki jismoniy eskirish tufayli aktiv qiymati tushganda IAS 36 standarti asosida qadrsizlanishga solinadi.

OTMlarning real balans ma'lumotlari asosida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda OTMlar tasarrufidagi asosiy vositalar guruhlar bo'yicha eskirish darajasi juda yuqori, biroq ularning bozor (haqqoniy) qiymati balansda aks etmagan. Quyidagi 2-jadvalda OTM asosiy vositalarining guruhlar bo'yicha joriy moliyaviy holati aks ettirilgan.

2-jadval.

OTM balansidagi asosiy vositalarning guruhlar bo'yicha holati va eskirish tahlili

T/r	Asosiy vositalar guruhlar nomi	Boshlang'ich qiymati (mln. so'm)	Jamg'arilgan amortizatsiya (mln. so'm)	Qoldiq qiymati (mln. so'm)	Eskirish darajasi (%)
1	Yer va binolar, inshootlar	125,400.0	31,350.0	94,050.0	25.0%
2	Mashina va	45,200.0	27,120.0	18,080.0	60.0%

	uskunalar, o'quv laboratoriyalari				
3	Kompyuterlashtirish va AKT vositalari	18,600.0	13,950.0	4,650.0	75.0%
4	Kutubxona fondlari va boshqa aktivlar	8,400.0	3,360.0	5,040.0	40.0%
	JAMI:	197,600.0	75,780.0	121,820.0	38.4%

Muhokama

Olingan natijalar va 2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, OTMning jami asosiy vositalari bo'yicha o'rtacha eskirish darajasi **38.4%** ni tashkil etmoqda. Biroq sohalar bo'yicha chuqurroq tahlil qilinsa, eng xavotirli holat Kompyuterlashtirish va AKT vositalari (**75.0%**) hamda Mashina va uskunalar, o'quv laboratoriyalari (**60.0%**) guruhlarida kuzatilmoqda.

Milliy BHMS tizimidagi qat'iy me'yorlar asosida hisoblangan amortizasiya ushbu aktivlarning real ma'nan eskirish sur'atlarini ifodalamaydi. Masalan, 75% eskirgan kompyuter texnik jihatdan allaqachon o'z funksiyasini bajara olmay qolgan bo'lishi mumkin (ya'ni real foydaliligi nol ga teng), lekin balansda hali ham 4,650.0 mln so'mlik qoldiq qiymat bilan ijobiy aktiv sifatida turibdi. Bu esa moliyaviy hisobot foydalanuvchilarini chalg'itadi.

MHXS 16-son «Asosiy vositalar» va MHXS 36-son «Aktivlarning qadrsizlanishi» standartlari qo'llanganda, ushbu AKT vositalari va laboratoriya uskunolari tezkorlik bilan qadrsizlanish testidan o'tkazilib, ularning balans qiymati real bozor qiymatiga muvofiqlashtirilgan bo'lar edi.

Yer va binolar guruhida esa (boshlang'ich qiymati 125,400.0 mln so'm) vaziyat aksincha. Binolarning bozor qiymati yildan-yilga oshib bormoqda. Agar OTM MHXSning Qayta baholash modelini (Revaluation model) qo'llasa, ushbu mulklarning haqqoniy qiymati baholanib, OTMning sof aktivlari (kapitali) hajmi keskin oshadi. Bu esa OTMning moliyaviy mustaqillik va jozibadorlik ko'rsatkichlarini xalqaro miqyosda yuqoriga ko'taradi.

Shuningdek, 1-jadvalda ko'rsatilgan «Komponentlar asosida hisob yuritish» tamoyilini binolar kesimida qo'llash zarur. Masalan, OTM o'quv binosining tomi yoki isitish tizimi 10-15 yilda almashtirilishi lozim, binoning poydevori esa 80 yil xizmat qiladi. Ularni alohida komponent sifatida hisobga olish va alohida amortizasiya normasini qo'llash OTM byudjetini to'g'ri rejalashtirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar

O'tkazilgan tadqiqot va empirik tahlillar natijasida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida asosiy vositalar hisobini MHXS talablari asosida takomillashtirish bo'yicha quyidagi tizimli takliflar ilgari suriladi:

1. Individual hisob siyosatini shakllantirish: Moliyaviy mustaqil OTMlar davlat tomonidan beriladigan shablonlardan voz kechib, MHXS 16 ga asoslangan, o'z aktivlarining real xizmat muddatini aks ettiruvchi xususiy «Hisob siyosati»ni ishlab chiqishlari lozim.

2. **Aktivlarni haqqoniy qiymatga o'tkazish:** Bino va inshootlar guruhi uchun qayta baholash modelini, AKT va laboratoriya uskunalari uchun esa tannarx va qadrsizlanish modellarini birgalikda qo'llash.

3. **Amortizatsiya tizimini erkinlashtirish:** Soliq qonunchiligidagi amortizatsiya me'yorlaridan faqat soliq maqsadlarida foydalanib, moliyaviy hisobot uchun aktivlarning iqtisodiy foydali xizmat muddatini OTM ichki komissiyasi tomonidan belgilash amaliyotini joriy etish.

4. **Avtomatlashtirish va kadrlar salohiyati:** Buxgalteriya hisobi tizimlarini (1S:Buxgalteriya, SAP, ERP) MHXS parallel hisobini yurita oladigan darajada modernizatsiya qilish va xodimlarni ACCA/DipIFR/CIPA tizimlari bo'yicha tizimli o'qitish.

MHXSga tizimli o'tish OTMlar moliyaviy hisobotlarining xalqaro miqyosda tan olinishini ta'minlaydi va ularning akademik hamda moliyaviy mustaqilligini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati (References)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-fevral dagi PQ-4611-sonli «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori.
2. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari: MHXS (IAS) 16 «Asosiy vositalar» standarti.
3. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS) 5-sonli «Asosiy vositalar».
4. International Financial Reporting Standards (IFRS) Blue Book. IFRS Foundation, 2024.
5. Ismanov I.N. "Uzoq muddatli aktivlar buxgalteriya hisobining metodologik asoslari" - T; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti 2006-176 b.
6. Xatamov K.X. "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida asosiy vositalar hisobi va auditini takomillashtirish" iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati-T:-2019.
7. Терпак Н.А. Международные стандарты финансовой отчетности: цель, принципы и сопоставление с положениями по ведению бухгалтерского учета в РФ // Экономика и биз-нес: теория и практика. – 2019. – № 10-2 (56). – С. 118-120.
8. Жердева О.В., Санькова Е.А. Развитие концепции справедливой стоимости//Сб. Формирование экономического потенциала субъектов хозяйственной деятельности: проблемы, перспективы, учетно-аналитическое обеспечение. – 2015. – С. 76-79. Муллинова С.А., Жердева О.В. Международные стандарты финансовой отчетности: учебное посо-бие. – Майкоп: ИМ Магарин О.Г., 2018. – 176 с.
9. Филиппова М. Сравнительный анализ учета основных средств по РСБУ и МСФО//European journal of economics and management sciences. – 2017. – №2. –С. 6-9.
10. Шкамарда К.А. Амортизация и обесценение основных средств в соответствии с РСБУ и МСФО // Инновационная наука. – 2017. – №12. – С. 129-133.

Copyright: ©2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

